

ZULFIYA SHE'RIYAT KUYCHISI**Naima Muhiddinova**

Namangan davlat pedagogika instituti.

O'zbek tili va adabiyoti. 1-kurs magistranti.

Anotatsiya: Har bir ijodkorning o'ziga yarasha qobiliyati bor. Shoira ijodida ham, shunday hususiyat mavjud. Zulfiya ijodiga to'xtaladigan bo'lsak, uning she'rlarida asosiy timsol vafo va sadoqat hisoblansa, mazmuniy jihatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, vatan sevgi, mehr-muhabbat, hijron kabi mavzular muhim ahamiyat hisoblanadi. Ushbu maqolada Zulfiyaxonimning ijodiy faoliyati va bosib, o'tgan yo'li hususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Shoira she'rlari, tahlil, tanqid,

Tinimsiz mehnat kuni kelib, albatta o'z samarasini beradi. Shoira ijodida ham, huddi shunday, bo'ldi. Onasi tomonidan aytib, berilgan turli mavzudagi ertaklar, jajji qizaloqning ijodkor bo'lishiga sabab, bo'ldi. Bedor o'tgan uyqusiz tunlar yoosh iste'dod egasining ilk to'plami o'n yetti yoshida nashr etildi. Hamda, o'sha davrda qalam, tebratgan ustozlar e'tiboriga tushdi. O'quvchi yoshlar qalbidan chuqur joy oldi. Uni "Bahor keldi seni so'roqlab" she'riy to'plami shoiraning yuz yilligiga bag'ishlab, chop etilgan. Ushbu to'plamdan o'rin olgan. Shoira "Bu oqshom" she'ridagi quyidagi to'rtlikka ishora qilib,

Bu nazm bog'iga kirolmas, hazon,

Bizni mahf etolmas, zavol lashkari.

Men ketsam, mung'aymas umrim hech qachon?

Bu bog'lar, bir bog'lar, bo'ladi hali.

Qancha yov bosib, olib, uni ming buzishga harakat qiladi. Ammo buza olmaydi. Har bir inson borki, yo'g' narsani bor qilishga urinadi. Bog' yaratadi. Mevali va manzarali daraxtlar ekadi. Hosilga kirgunga qadar parvarish qiladi. Ayniqsa, uning hosilini yig'ib, olish, kishiga o'zgacha zavq berardi. 2019-yilda nashr qilingan "Tingla bulbul" she'riy to'plamiga kiritilgan "Oltin kuz" she'rida kuz fasliga tarif bergan.

Sevaman oltin kuz, sevaman jondan,

Atlas tabiatli go'zal Chog'ingni.

Deya, daraxtlarning yashil barglari, oltin tusga kirib, yerlarga to‘p-to‘p bo‘lib, to‘kilishi, qolaversa, mana shu hususiyat bilan kuz fasli boshqa fasllardan ajralib, turishi, ta’kidlanmoqda.

Shu o‘rinda Zulfiya o‘zi kim? Nega aynan davlat mukofoti uning nomida, degan savol tug‘ilishi, mumkin. Bu savolga birgalikda javob topamiz. Bir necha orden va medallar sohibi, hisoblanadi.

E’zozlar, ardoqlar, uchun tashakkur,

Asli siz oftobim, men ziyosiman.

Tonglaringiz kulsin dorilamon xur,

Baxtim shul, o‘zbekning Zulfiyasiman.

1999-yil mamlakatimizda ayollar yili deb, e’lon qilindi. Hamda, ushbu yilda marhum yurtboshimiz Islom Karimov. Tomonlaridan Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta’sis etish, bo‘yicha farmoniga imzo qo‘yadilar. Bu mukofot har yili Qoraqalpog‘iston respublikasi Toshkent shahri va viloyatlardan namunali xulqi, davlat va jamoat ishlarida tadbirlarda faol ishtirok etib, kelayotgan o‘n to‘rt yoshdan o‘ttiz yoshgacha bo‘lgan qizlarga mamlakat rahbari tomonidan sakkizta yo‘nalishida topshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Zulfiya Isroilova “Bahor keldi seni so‘roqlab”, 2019-yil. Toshkent: Yangi asr avlod nashriyoti. 5-C
2. Zulfiya Isroilova. “Tingla bulbul”, 2019-yil. Toshkent: Kamalak press MChJ nashriyoti. 8-C